



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY



Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

E-mail: lazimovilhom@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot

Universiteti Moliya kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: nodirjonnazarov5@gmail.com

Annotatsiya: Yashil iqtisodiyotga o'tish iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning degradatsiyasi (ya'ni, obyekt yoki hodisaning xususiyatlarining vaqt o'tishi bilan yomonlashuvi, tabiat qonunlari va tashqi omillar ta'sirida moddaning asta-sekin yemirilishi, pasayishi yoki yo'q bo'lishi) hamda resurslar tanqisligi bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal qilishda muhim qadamlardan biridir. Hozirda ko'plab mamlakatlar barqaror rivojlanishga intilayotgan bir vaqtda, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ekologik yaxlitlik bilan muvozanatlash imkonini taklif qilmoqda. Bu o'tish jarayoni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini targ'ib qilish va sanoatda barqaror amaliyotlarni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur maqolada O'zbekiston va Xitoyning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha amalga oshirgan strategiyalari va tajribalari yoritib berilgan. Yashil iqtisodiyotni joriy etish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki energiya xavfsizligini oshiradi va aholining sog'lig'ini yaxshilaydi. Shu bilan birga, toza energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va aylanma iqtisodiyot amaliyotidagi innovatsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorining mazmuni ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sug'orish texnologiyasi, degradatsiya, iqtisodiy konsepsiya, "yashil" sektor, global quyosh panellari, urbanizatsiya, PV energiya, biomassa, OECD.

Abstract: The transition to a green economy is an important step in addressing pressing issues related to climate change, environmental degradation (i.e., the deterioration of the properties of an object or phenomenon over time due to external influences in accordance with the laws of nature), and resource scarcity. At a time when many countries are striving for sustainable development, the concept of a green economy offers a path to balance economic growth with ecological integrity. This transition aims to promote renewable energy sources and develop sustainable practices in industry. This article presents the strategies and experiences of Uzbekistan and China in transitioning to a green economy. The adoption of a green economy not only reduces environmental impact but also enhances energy security and improves public health. Moreover, innovations in clean energy, sustainable agriculture, and circular economy practices play a significant role in job creation and economic stability. The article also analyzes the Presidential Decree of Uzbekistan "On Measures to Increase the Effectiveness of Reforms Aimed at the Transition of the Republic of Uzbekistan to a Green Economy by 2030."

Key words: irrigation technology, degradation, economic concept, green sector, global solar panels, urbanization, PV energy, biomass, OECD.



Аннотация: Переход к «зелёной экономике» является важным шагом в решении актуальных проблем, связанных с изменением климата, деградацией окружающей среды (то есть постепенным ухудшением свойств объектов или явлений под воздействием внешних факторов во времени) и дефицитом ресурсов. В условиях, когда многие страны стремятся к устойчивому развитию, концепция «зелёной экономики» предлагает путь к гармоничному сочетанию экономического роста и экологической целостности. Этот переход направлен на продвижение возобновляемых источников энергии и развитие устойчивых промышленных практик. В данной статье рассматриваются стратегии и опыт Узбекистана и Китая по переходу к «зелёной экономике». Внедрение «зелёной экономики» способствует не только снижению негативного воздействия на окружающую среду, но и укреплению энергетической безопасности и улучшению здоровья населения. Кроме того, инновации в сфере чистой энергетики, устойчивого сельского хозяйства и практик циркулярной экономики играют важную роль в создании рабочих мест и обеспечении экономической стабильности. Также в статье проанализировано Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан к "зелёной" экономике до 2030 года».

Ключевые слова: технологии ирригации, деградация, экономическая концепция, «зелёный» сектор, глобальные солнечные панели, урбанизация, фотоэлектрическая энергия (PV), биомасса, ОЭСР (OECD).

KIRISH

Yashil iqtisodiyot – bu zamonaviy rivojlanishning yangi yo‘nalishi bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgandir. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar ushbu yo‘nalishda turli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Masalan, Daniya va Shvetsiya shamol energiyasidan keng foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga erishgan. Shuningdek, Xitoy ham ushbu borada sezilarli natijalarga erishgan mamlakatlardan biridir.

Agar masalaga makroiqtisodiy nuqtai nazardan yondashilsa, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, qayta tiklanuvchi resurslar ulushining ko‘payishiga erishish, hamda iqtisodiyotdagi xavf-xatarlarni kamaytirish imkonini beradi. Har bir mamlakat o‘zining alohida rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, ular mavjud muammolarga samarali yechim topgan va boshqa davlatlar tajribasidan ilhomlanib, o‘z milliy strategiyalarini ishlab chiqqan.

Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud:

Yashil iqtisodiyot yangi kontseptsiya sifatida har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga moslashtirilib qo‘llanishi zarur;

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko‘pincha tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanishga asoslangan bo‘lib, bu esa atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelmoqda;

Ko‘plab ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi sababli, ularni zamonaviylashtirishda muhim texnik va moliyaviy to‘siqlar yuzaga kelmoqda;

Yashil iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan kapital qo‘yilmalar miqdori cheklangan, davlat xarajatlari kamaymoqda, milliy resurslar esa asosan ocharchilik va kambag‘allikni kamaytirish, sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimini yaxshilashga yo‘naltirilmoqda;

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda mavjud to‘siqlarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalishda ekologik targ‘ibotni kuchaytirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, sohaga oid normativ-huquqiy bazani yaratish, innovatsion texnologiyalardan foydalanishni jadallashtirish, ekologik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ekologik toza energiya manbalarini o‘zlashtirish hamda sohaga ixtisoslashgan mutaxassislarini tayyorlash kabi vazifalarni hal etish zarur.

Ayniqsa, yashil iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Amaliy jihatdan olib qaralganda, yashil iqtisodiyotga o‘tish bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tez-tez yuz berayotgan inqirozli holatlar sharoitida qabul qilinishi lozim bo‘lgan muhim qarorlardan biridir. Shu sababli, milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan moliyaviy resurslar va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash alohida ahamiyatga ega [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qaroriga asosan, binolar va ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini oshirish, shu jumladan ularning issiqlik himoyasini yaxshilash maqsadida energiya samarador texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini joriy etishga oid loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini tayyorlash moliyalashtirildi.



Shuningdek, energiya auditi o'tkazish, energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv markazlarini tashkil etish (bino va inshootlarni qurishdan tashqari) hamda amaliy seminarlar o'tkazish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, quyidagi yo'nalishlardagi startap-loyihalarni moliyalashtirish belgilangan:

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari,
issiqlik nasoslari,
rekuperatorlar,
reaktiv quvvatni tiklovchi qurilmalar (kondensator batareyalari),
rele himoyasi uchun mikroprotessor bloklari,
chastotali o'zgartirgichlar,
bir tekis ishga tushirish qurilmalari.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish doirasida ishlab chiqarish korxonalarining ustav jamg'armalarida (kapitalida) ishtirok etish va ishlab chiqarish loyihalarini shakllantirish masalalari ham ko'zda tutilgan [2].

Shuningdek, tashkilot binolarida elektr energiyasini tejash maqsadida quyosh panellarini o'rnatish eng maqbul yechim sifatida tavsiya etilgan.

2020–2022-yillar davomida iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejash bo'yicha maqsadli parametrlar asosida quyidagi statistik ko'rsatkichlarga erishilgan:

tabiiy gaz – 2 595.31 mln kub.m,
elektr energiyasi – 3 263.04 mln kVt/soat,
neft mahsulotlari – 16 556.24 tonna.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat doirasida qator strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagi strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan:

a) 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) 1-ilovaga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli qaroriga asosan, respublikada "yashil" iqtisodiyotga o'tish borasida quyidagi strategik maqsadlarga erishish belgilangan:

Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga qisqartirish;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga yetkazish va ulardan foydalanish ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan oshirish;

Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shu jumladan 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish;

Har yili 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

Respublika o'rmon fondi zaxiralarini 90 million kub metrdan oshirish;

Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Bundan tashqari:

b) sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlashga doir Konsepsiya (2-ilovaga muvofiq);

v) 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlashga qaratilgan Harakatlar rejasi (3-ilovaga muvofiq);

g) 25 ta korxona va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning Maqsadli parametrlari (4-ilovaga muvofiq) tasdiqlansin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash (5-ilovaga muvofiq) tashkil etilib, unga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

Davlat organlari, tashkilotlar va mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan 2019–2030-yillar davomida "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", Dastur va Harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlarning to'liq hajmda va o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;



Har chorakda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

Doimiy monitoring asosida strategiya doirasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish va mas'ul tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish choralari belgilash.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, “yashil siyosat” va “yashil iqtisodiyot” o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, “yashil” o'tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tishning ajralmas qismidir. “Yashil” siyosat resurslar va boyliklarni samaraliroq taqsimlashga, raqobatbardosh korxonalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yashil” yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni samarali boshqarish orqali tabiiy resurslar bazasini saqlab qolgan holda boshqa sohalarda o'sish uchun imkoniyat yaratadi. U, shuningdek, yashil texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanishni rag'batlantiradi. Bu esa yangi ishtirokchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish, innovatsiyalar va xususiy kapitalni keltirib chiqarish orqali yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Bunda “yashil” o'tish jarayonida iqtisodiy o'zgarishlardan zarar ko'rgan ijtimoiy guruhlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni yangi imkoniyatlarga integratsiya qilish alohida ustuvorlikka ega. Bu esa iqtisodiy islohotlarga jamoatchilik tomonidan ijobiy munosabat bildirilishini ta'minlaydi va o'tish jarayonining barqarorligini kuchaytiradi.

Yanada barqaror va “yashil” iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar, resurslardan foydalanishdagi samaradorlik, narxlar o'zgarishining ijtimoiy ta'siri kabi omillarni oldindan inobatga olib, past daromadli aholiga salbiy ta'sirni yumshatishga yo'naltirilgan siyosat yuritishi lozim.

“Yashil” sektorlarni qo'llab-quvvatlash va uglerod hamda resursga boy faoliyat turlaridan bosqichma-bosqich voz kechish, investitsiya oqimlari va ish o'rinlari tuzilmasini o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar kimlargadir foyda keltirishi, boshqalar uchun esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, iqlim o'zgarishining jismoniy ta'siri kabi tashqi omillar ham ushbu muammolarni yanada chuqurlashtirishi mumkin [4].


Ushbu maqola Vaxabov Abduraxim Vasikovich va Xajibakiyev Shuhrat Xo'jayorovich tomonidan tayyorlangan “Yashil iqtisodiyot” nomli adabiyot hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori asosida yozildi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi orasida Xitoyning yo'nalishi alohida e'tiborga loyiq. Xitoy bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, quyosh va shamol energiyasi bo'yicha Xitoy global miqyosda ilg'or o'rinlarni egallagan. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan quyosh panellarining 70 foizdan ortig'i Xitoy hissasiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, Xitoy hukumati atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qat'iy qonun va qoidalarni joriy etgan bo'lib, xalqaro hamkorlik va texnologiyalar almashinuviga katta e'tibor qaratgan. Ekologik yondashuv nuqtai nazaridan esa Xitoy shaharlar ekologiyasini saqlash, urbanizatsiyani inson omilini inobatga olgan holda boshqarish, tabiatni muhofaza qilish hamda bardoshli va aqlli shaharlarni barpo etishga alohida ahamiyat bermoqda.

Mazkur yondashuv asosida Xitoy urbanistik rivojlanishda shahar va tabiat uyg'unligini ta'minlashga harakat qilmoqda. Tog'lar, suvlar va boshqa noyob landshaftlardan foydalanish orqali shahar muhitini tabiiy manzaralar bilan uyg'unlashtirishga erishilmoqda. Bu esa aholiga nafaqat ekologik barqarorlikni taqdim etadi, balki ularning qishloqdan kelib chiqqan tarixiy xotiralarini ham yangilaydi.


Shuningdek, shahar ekologik makonini kengaytirish maqsadida milliy bog' shaharlari, o'rmon shaharlari, yashil yo'llar va bog'lar barpo etish ishlari olib borildi. Ko'kalamzorlashtirish ishlarining kengaytirilishi shaharlarning ekologik muhitini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qildi. Xususan, 2012–2021-yillar davomida yashil aholi punktlari qamrovi 39 foizdan 42 foizgacha oshgan (1-rasm).



1-rasm. Yashil qurilish maydonlarining ulushi sifatida har yili Xitoyda yangi shahar qurilish hududlari (2015–2021) [5]



Bu yerdan progressiv o'sishni ko'rishimiz mumkin, Xitoyda 7 yil davomida juda yaxshi sezilarli darajada shahar qurilishiga etibor qaratgan. 2015-yilda 20 % bo'lgan bo'lsa 2016-2017 yillarda 7%-15 % o'sganini ko'rishimiz mumkin, shu yerda asosiy o'sishga ta'sir qiluvchi omil bu - albatta intellekt bilan erishilgan deb hisoblayman va albatta to'g'ri investitsiya loyihasi va ularni ijobiy boshqarsish. Oxirgi 3 yilda 12%-7 % o'zgarganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bundan tashqari Xitoy ko'mir o'rnini bosish orqali toza yakuniy energiyani targ'ib qildi tabiiy gaz, elektr energiyasi va qayta tiklanadigan energiya bilan. Shimoliy Xitoyda qishda toza isitishni faol qo'llab-quvvatladi. Bu tabiiy gazdan shaharlarda, shuningdek, sanoat yoqilg'isida, elektr energiyasida foydalanishni yanada samarali qildi ishlab chiqarish, tashish va tabiiy gazni kombinatsiyalangan sovutishni targ'ib qilish, isitish va quvvat (CCHP). U yangilash kompaniyasini boshladi qayta ishlangan neft mahsulotlari sifati. 10 yildan kamroq vaqt ichida Xitoy bunga erishdi rivojlangan mamlakatlarda 30 yildan ortiq vaqtni talab qilgan modernizatsiya va uning tozalangan nefti mahsulotlar hozirda xalqaro standartlar bo'yicha eng yaxshi sifatga ega. Buning natijasida transport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar chiqishi samarali ravishda kamaydi.



2-rasm Xitoyning qayta tiklanadigan energiyaning o'rnatilgan quvvati va mamlakatning umumiy o'rnatilgan quvvatiga nisbatan foiz (2012-2021) [5]

Xitoy 2012-2021-yillar oralig'ida 4 ta qayta tiklanadigan energiyalardan samarali foydalanish natijasida yaxshi yutuqlarga erishdi. Bular samol energiyasi, PV energiya, biomass, hamda gidroenergiyalar hisoblanadi. Bu statistikada Xitoy bino qurilishga nisbatan juda yuqori darajada o'sish bo'lmagan bo'lsa ham yildan yilga o'zining hajmini oshirib bormoqda (2-rasm).

Yashil o'sish ko'rsatkichlari OECD (The Organization for Economic Cooperation and Development) tomonidan 2010-yilda yashil o'sish strategiyasining oraliq hisobotida bayon etilgan. Yashil o'sish ko'rsatkichlarining OECD hisobotida ifodalanganligi yashil o'sishni yaxshiroq amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega (OECD, 2010). 2-rasmda Yashil siyosat platformasida yashil rivojlanish ko'rsatkichlari ko'rsatilgan. 2-rasmda yashil o'sish sur'atlari eng past bo'lgan dunyo mamlakatlari jamlangan sarlavhalari keltirilgan. OECDning yashil o'sish ko'rsatkichlari to'plamini o'rganishi quyidagilarni qamrab oladi.


1-jadval. Yashil o'sish ko'rsatkichlari to'plami [6].

Ijtimoiy-iqtisodiy kontekst	Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot; Aholi zichligi; ishsizlik; indeks; Gini indeksi; inson taraqqiyot indeksi.
Tabiiy aktivlar bazasi	O'rmonlarning yillik o'rtacha kesilishi; Aholi jon boshiga yillik chuchuk suv olish; Qishloq xo'jaligi yerlari; Quruqlik va dengiz qo'riqlanadigan hududlar.
Atrof-muhit va resurslar unumdorligi	Aholi jon boshiga CO2 emissiyasi; Uglerod unumdorligi.
Atrof-muhitning hayot sifati	Aholining havo ifloslanishiga ta'siri (PM2); Yaxshilangan sanitariya sharoitlariga kirish; Yaxshilangan suv manbalariga kirish; Elektrga kirish
Siyosiy va iqtisodiy munosabatlar	Qazib olinadigan yoqilg'i iste'moli uchun subsidiyalar; Atrof-muhit bilan bog'liq soliq tushumlari; Qayta tiklanadigan elektr energiyasi.
Boylikning o'zgarishi	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan boylikning o'zgarishi.



1-jadvalda barqaror rivojlanishning asosiy elementlari va Munasingxe tomonidan taklif qilingan yondashuvga muvofiq ushbu elementlar o'rtasidagi aloqalar ko'rsatilgan. Uchburchakning chetidagi har bir maydon o'ziga xos xususiyatlarga va maqsadlarga ega. Iqtisodiy o'lchov tovarlar va xizmatlarni ko'paytirish orqali inson farovonligini oshirishni hisobga oladi; atrof-muhit o'lchov ekotizimlarning yaxlitligi va barqarorligini saqlashga qaratilgan; ijtimoiy jihat insoniy munosabatlarni boyitish va mustahkamlashdan tashqari, odamlarning individual va guruhlar sifatida o'z maqsadlariga erishishini ta'minlashga urg'u beradi.

(Munasinghe, 2009)



Nizolarni hal qilish usullarini iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa nuqtai nazarlardan baholashda bir nechta sifat va mezonlarga asoslangan yechimlarni aniqlovchi baholash usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'p mezonli qaror qabul qilish sharoitida har bir mezonning og'irligi boshqalarnikiga nisbatan yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi mumkin. Shu sababli, har bir mezonning ahamiyat darajasini aniqlash va ularning og'irliklarini aniqlashtirish talab etiladi.

SWARA (Step-wise Weight Assessment Ratio Analysis) – bu ratsional qaror qabul qilish jarayonida mezonlarning muhimligini aniqlashga xizmat qiluvchi samarali usullardan biri bo'lib, u ekspertlarning yoki manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. SWARA usuli, ayniqsa, muqobil nizolarni hal qilishda amaliy qo'llanilishi bilan ajralib turadi (Keršulienė va Turskis, 2011).

Ushbu tadqiqotda SWARA usuli tanlanishiga sabab uning amaliy qulayligi va mezonlar reytingini aniqlashdagi soddaligi bilan izohlanadi. SWARA usuli to'rtta asosiy qoidalar va protseduralarga asoslanadi:

Birinchi bosqichda – ekspertlardan mezonlarni muhimlik darajasi bo'yicha tartiblash so'raladi (eng muhimidan eng kam muhimigacha).

Ikkinchi bosqichda – har bir keyingi mezon avvalgisiga nisbatan qanchalik kamroq ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda – bu farqlar asosida vazn koeffitsiyentlari hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichda – yakuniy normalashtirilgan og'irliklar aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda o'nta ekspert ishtirok etib, ularning fikrlari asosida mezonlar tartiblab chiqildi. Ushbu mezonlar 2-jadvalda batafsil keltirilgan.



2-jadval. SWARA metodi bo'yicha ekspert mezonlari reytingi.

No	Mezonlar	E 1	E 2	E 3	E 4	E 5	E 6	E 7	E 8	E 9	E 10	Geom	O'rta	Reyt
.1	Iqtisodiy	1	1	3	1	1	3	3	3	1	1	1.49	1.70	1
.2	Ijtimoiy	2	3	2	3	2	2	2	2	2	2	2.26	2.30	2
.3	Atrof-muhit	3	2	1	2	3	1	1	1	3	2	1.78	1.70	3
E:10.E=Ekspert me-1 zonlari reytingi														
O'rt. O'rtacha arif- metik														
GEOMEAN Geometr- ik o'rtacha														

2-jadvalda hisoblashda ekspert xulosalaridan foydalanilgan. Ushbu jadvalda ko'rsatilgan barqaror iqtisodiyotning uchta asosiy mezonining ahamiyati reytingi. Keyingi bosqichda mutaxassislardan o'zlarining nisbiy ahamiyat darajalarini ifodalash so'ralgan ikkinchi mezondan boshlab har bir mezon uchun foiz sifatida. [6]

1990-2015-yillar uchun yuqorida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar Jahon banki tomonidan qo'llaniladigan "yashil iqtisodiyot" ko'rsatkichlari barqaror iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tasnifiga kirib, inklyuziv yashil ko'rsatkichlaridan iborat. Jahon Banki instituti ilmiy izlanishlariga ko'ra barqaror iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlovchi yo'nalish bu "yashil o'sishdir". Shu bois Jahon Banki tomonidan qo'llanilayotgan "yashil iqtisodiyot" ko'rsatkichlari "yashil o'sish" ning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha guruhlanadi: atrof muhit, iqtisodiy va ijtimoiy. Ular jamiyat, iqtisodiy va atrof muhit uchun natijaviy samaradorlikni ifodalash uchun xizmat qiladi.

3-jadval. Jahon Bankining "yashil o'sish" dagi samaradorlik ko'rsatkichlari.[1]

	Vosita	Ko'rsatkich
Atrof muhit	Atrof muhit holatini yaxshilash	-CO2 emissiyasini kamaytirish; -rivojlanishdan himoyalangan tabiiy joylar; -havo va suv resurslari sifati
Iqtisodiyot	Ishlab chiqarish omillari (fizika, inson va tabiat kapitali)ning ortishi	Marjinal mahsulot-ishlab chiqarish omilining bir birlikka ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi (ekotizim xizmatlari qiymati va tiklanadigan omillarga bog'liq holda)
	Bozor muvaffaqiyatsizliklarini, innovatsiyalarni rivojlantirish va bilimlar iqtisodiyoti asosida hal etish	-Yashil texnologiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari; -Yashil texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasi
Ijtimoiy	Tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari narxlar beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlariga moslashuvchanlikni oshirish	-ofatlarlardan ko'rilgan zararlar(pul birligida); -ofatlardan zarar ko'rgan insonlar(kishi) -narx beqarorligidan Zarar ko'rgan (kishi)
	Yaratilgan ish o'rinlari va kambag'allikni kamaytirish	-yaratilgan ish o'rinlari va ularning kambag'allik darajasiga ta'siri; -ish bilan bandlik va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqlik ko'rsatkichlar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston, yashil iqtisodiyotga o'tishda bir qator muammolarni boshdan kechirmoqda. Tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, eskirgan texnologiyalar va moliyaviy resurslarning cheklanganligi – bu muammolar. Biroq, yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, energiya xavfsizligini ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xitoyning tajribasi bu borada qo'llaniladigan samarali modellarni ko'rsatadi. U qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda yetakchi o'rinda bo'lib, shahar ekologiyasini saqlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni amalga oshiradi. Urbanizatsiya jarayonida tabiatni muhofaza qilishga alohida e'tibor beriladi,



bu esa yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Yashil iqtisodiyotga o'tish muvaffaqiyati uchun o'quv markazlarini tashkil etish va yangi texnologiyalarni joriy etish muhim. O'zbekiston ham energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejalarini amalga oshirmoqda. 2030-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar, issiqxona gazlarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirish va suvdan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishga ko'maklashadi. Ushbu jarayonlar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, iqtisodiy o'sishni ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Xajibakiyev Shuhrat Xo'jayorovich "Yashil iqtisodiyot" Toshkent-2021.-bet – 262.
2. <https://lex.uz/docs/-4890081>
3. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>
4. "O'zbekiston yashil iqtisodiyot sari" Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki-2020.- bet -11.
5. "China's Green Development in the New Era" January 2023. -bet -52.
6. "Green Economy in Sustainable Development: An Analysis for OECD Countries" 2023.- bet 30.



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
О‘ЗBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ.....	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
